



## BONU ROMANIDA RUHIYAT TASVIRI.

*Abdullayeva Farida*

*Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti*

*Adabiyotshunoslik(o'zbek adabiyoti) fakulteti, adabiyotshunoslik nazariyasi istiqlol davri  
adabiyoti kafedrası 2-kurs magistri*

**ANNOTATSIYA** Mazkur maqolada Iqbol Mirzoning ko'pgina kitobxonlarda katta taassurot uyg'otgan "Bonu" romani to'g'risida so'z boradi. Asosan romanda obrazlar ruhiyati chizgilari tasvirlangan hamda muallifning ijtimoiy-falsafiy qarashlari ochib beriladi. Shuningdek, asar yuzasidan bildirilgan adabiy-estetik mulohazalar va tahliliy qarashlar umumlashtiriladi.

**Kalit so'zlar:** epistolyar uslub, ijodkor mahorati, roman sujeti, obraz ruhiyati

**ABSTRACT** This article discusses Iqbol Mirzo's novel \*Bonu\*, which has made a strong impression on many readers. It focuses on the psychological portrayal of characters and the author's social and philosophical views reflected in the work. In addition, various literary and aesthetic interpretations and analytical perspectives on the novel are summarized.

**Keywords:** Epistolary style, author's creative, novel plot, character psychology

Iqbol mirzoning bonu romani mustaqillikdan keyingi yillar siyosatchilarimiz ta'biri bilan aytganda bozor iqtisodiyotini yoritib bergan asardir. Romanda har qanday inson duch kelishi mumkin bo'lgan sinovlarda ayol matonati yoritilgan. Roman g'arbda mashxur bo'lgan epistolyar usulida yozilgan. Epistole noma ya'ni birovga maktub shaklida yozilgan adabiy yoki publitistik asardir.

d.qur'onov,z.mamajonov,m.sheraliyevlar. adabiyotshunoslik lug'ati. T. akadem nashir.roman voqealari shiddatli o'qilishi tez. Asarni o'qigan kitobxon obrazlar olamiga ruhiyatiga ko'zida yosh bilan kirib boradi.

Badii adabiyotda so'z ma'nodorligi ifodaliligi matn mazmunini anglash jarayonida paydo bo'ladi. Xalq og'zaki ijodi bo'lmish maqol va matallar kishiga estetik zavq beradi,tuyg'ularini tarbiyalaydi. Romanda bunday xalq og'zaki ijodi namunalarini ko'plab uchratamiz. Xalq og'zaki ijodi namunalari obrazlar olamini,ularning so'zamonligini ruhiyatini ochib beradi. Bonu romani ham muntaz adabiyot namunalari maqol va matallar bilan boyitilgan asardir.



Bekorchidan xudo bezor. Armon dil tubiga cho'kkanligi uchun zilday og'ir deydilar. Tanasi boshqa dardingni bilmas deganlaridek anduhlarimni tushunmasdan meni qoraro'yxatga qo'shib qo'ymasmikansiz?

Adabiyot ruhiyat alifbosidir. Inson ruhiyatini anglash mushkul,mashaqqatli. Badii adabiyot insonqalbini ruhiyatini tushunish sari yo'l ochadi.

b.karim ruhiyat alifbosi Toshkent g'.g'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti.

Romanning bosh qahramoni sanalmish bonuning boshiga tushgan mashaqqatli sinovlarga mardonavor turib berishi bizga ayub payg'ambar sabrini eslatadi. Bonu eng avval bobosidan keyin padari buzrukvoridan ayriladi. Akasining do'sti yusuf uni el oldida sharmanda qiladi. Bu ham yetmagandek otasi vafotidan keyin akasi mirhond arzimagan bir sabab bilan bobosidan qolgan uyni sotib yuboradi va aka singil orasiga nizo tushib akasidan ham ma'nan judo bo'ladi.

Dodudod deb yig'lasam kimga yetar dodim mening?

Xalq orasida dunyo so'ziga yolg'on so'zining qo'shib aytilishi bejiz emas. Bu fikimiz bonuning boshidan kechirgan voqealarda o'z aksini topadi. Asarni o'qigan kitobxon bonuning sabr matonati,jasorati bardoshiga qoyil qoladi. U razillik va tubanlik to'la dunyoda o'zini yo'qotmagan ruhiy kamoloti mustahkam insondir. Asardagi shoira opa huvaydo bobo,bonuning onasi,Alisher,ruhsora obrazlari orqali soda beg'ubor jonkuyar insonlarni ko'ramiz. Yusuf bonuning tog'asi,dilbar obrazlari orqali jamiyatda naqadar razil va tuban odamlar borligining guvohi bo'lamiz. Bu asar yozilishi bilan nafaqat kitobxonlarning balki xalqimiz ardog'idagi yozuvchi shoirlarning ham e'tiborini tortdi. Asar haqida ko'plab maqola taqrizlar yozildi. O'zbekiston respublikasi san'at arbobi Ibrohim G'afurovning asarga yozgan taqrizi e'tiborga molikdir.

Girdob naqadar dahshatli ekanini,inson jozibasi nima ekanini biz bonuning boshidan kechirgan sinovlari orqali yurak ongimiz bilan boshimizdan o'tkazamiz. Voye suf bu dunyoyi dunga deb baqiramiz.

Bonu faxtarbooks nashriyoti 6-b.

Xulosa qilib aytganda bonu hayotning qing'ir -qiyshiq yo'llarini bosib o'tgan, bu yo'lda duch kelgan sinovlarni jasurlik bilan yengib o'tgan insondir. Bonu romani, ichtimoiy davr, inson ruhiyati va mehr oqibatning yo'qolib borayotganligini ochib bergan asardir.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Iqbol mirzo "Bonu" Toshkent, faxtorbooks, 2022.
2. . i. g'afurov "istirob jozibasi" Toshkent, faxtorbooks, 2022.



3. . B.karim ruhiyat alifbosi Toshkent g'.g'ulom. 2018.
4. . D.qur'onov,z.mamaonov,m.sheraliyev. adabiyotshunoslik lug'ati. Toshkent akadem nashr. 2013.